

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**X RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

MAY, 2026



ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**YANGI DAVR ILM-FANI:
INSON UCHUN INNOVATSION
G'OYA VA YECHIMLAR**

**X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 10-son (may, 2026-yil).– 93 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-may

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Erkinov Alisher

BUXORO SHAHRINING TURAR-JOY MAHALLALARI, AHOLISI SONI VA
ETNIK TARKIBI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 5-8

Sheripova Mahliyo

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGINING MADANIY MUHITI VA
KOMIL XORAZMIY FENOMENI 9-14

Yusupov Xamdambek

XORIJ TARIXSHUNOSLIGIDA AFRIG'IYLLAR SULOLASINING KELIB CHIQISHI
MASALASI: YONDASHUVLAR VA QARASHLAR 15-19

Xo'jayeva Inobat

YANGI O'ZBEKISTON VA YUNESKO: MADANIY MEROS, TA'LIM VA
BARQAROR RIVOJLANISH SOHASIDAGI STRATEGIK HAMKORLIK 20-26

Abdullayeva Shoxnoza

XORAZM TANBUR CHIZIG'I — SHARQ MUSIQA MADANIYATIDA NOYOB
NOTA YOZUVI TIZIMI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI 27-32

Xakimov Mansurbek

OROL FOJIASI – GLOBAL EKOLOGIK MUAMMO SIFATIDA 33-40

Xudoyorov Abrorjon

"XORAZM HAQIQATI" GAZETASIDA QISHLOQ MEHNAT AHLINING URUSH
YILLARIDAGI HAYOTI VA JASORATI MAVZUSINING YORITILISHI 41-43

Matchonova Nilufar

AMUDARYO HAVZASIDA IJTIMOYIY TARIX VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARNING
O'ZARO TA'SIRI: EFTALIYLLAR DAVRI ANTROPOGEN LANDSHAFTLARI VA
SOTSIO-EKOLOGIK MOSLASHUV (V–VI ASRLAR) 44-49

IQTISODIYOT FANLARI

Иногамова Наира

ЦИФРОВИЗАЦИЯ КАК ФАКТОР УСКОРЕНИЯ ПРОГРЕССА ПО ЦЕЛЯМ
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА 50-54

FILOLOGIYA FANLARI

Begmatova Diloromkhan

THE FUNCTIONAL ASPECT OF POLITICAL EUPHEMISMS IN DARI LANGUAGE
NEWSPAPER TEXTS 55-58

Akbarova Ma'suma

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KIYIM-KECHAK LEKSIKASINING LINGVOMADANIY
TAHLILI 59-61

Isanova Feruza

O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY DISKURSIDA MODALLIK IFODASI:
QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL 62-67

YURIDIK FANLAR

Xushboqov Himoyiddin

KIBERJINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DALILLARNI AUTENTIFIKATSIYA
QILISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI 68-74

PEDAGOGIKA FANLARI

Xaydarova Namunaxon

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM
TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI VA
UNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 75-78

Gulamov Shavkat

TALABALARDA ILMIY DALILASH VA LOGIK ARGUMENTATSIYA QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH 79-84

Yalgasheva Zilola

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNING
USLUBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI 85-87

Rasulova Dilafruzxon

XALQARO PEDAGOGIK ATAMALARNI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY
YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI 88-92

PEDAGOGIKA FANLARI

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI VA UNING ILMIY-METODIK ASOSLARI**Xaydarova Namunaxon Adhamjonovna**

Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: xaydarovanamunaxon343@gmail.com

Tel: +998 94 443 18 12

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, geymifikatsiya asosida rivojlantirish zarurati ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Maktabgacha ta'lim sohasida kompetensiyaviy yondashuv talablaridan kelib chiqib, tarbiyachining metodik, kommunikativ, psixologik hamda kreativ tayyorgarligini kuchaytirish muammolari yoritiladi. Geymifikatsiya texnologiyasining ta'lim jarayonida motivatsiya, refleksiya va amaliy faoliyatni faollashtirishga xizmat qiluvchi metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda o'yin mexanizmlari integratsiyasiga tayanuvchi ilmiy-metodik yondashuvlar hamda amaliy tatbiq mexanizmlari tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari geymifikatsiyalashgan ta'lim muhitining tarbiyachi kasbiy tayyorgarligini bosqichma-bosqich rivojlantirishdagi samaradorligini asoslaydi.

Kalit so'zlar. geymifikatsiya, maktabgacha ta'lim, bo'lajak tarbiyachi, kasbiy kompetentlik, innovatsion texnologiya, motivatsiya, reflektiv faoliyat, metodik model.

THE NEED FOR DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRESCHOOL EDUCATORS BASED ON GAMIFICATION TECHNOLOGY AND ITS SCIENTIFIC-METHODICAL BASIS**Khaydarova Namunaxon Adhamjonovna**

PhD student at Kokand State University

Annotation. This article scientifically and theoretically substantiates the need to develop the professional competence of future preschool educators based on modern pedagogical technologies, in particular, gamification. Based on the requirements of a competency-based approach in the field of preschool education, the problems of strengthening the methodological, communicative, psychological and creative training of the educator are highlighted. The methodological capabilities of gamification technology in the educational process are analyzed, which serve to activate motivation, reflection and practical activity. Also, scientific and methodological approaches and practical implementation mechanisms based on the integration of game mechanisms in the formation of professional competence of future educators are described. The results of the study substantiate the effectiveness of the gamified educational environment in the gradual development of the professional training of educators.

Keywords: gamification, preschool education, future educator, professional competence, innovative technology, motivation, reflective activity, methodological model.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i10/n14>

Bugungi globallashuv hamda ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida maktabgacha ta'lim sohasi uchun raqobatbardosh, kreativ va kasbiy jihatdan tayyor tarbiyachilarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Chunki maktabgacha yosh davri shaxs rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, undagi ta'lim-tarbiya sifati ko'p jihatdan tarbiyachining kasbiy kompetentligiga bog'liq hisoblanadi. Shu sababli bo'lajak

tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalasi faqat pedagogik ehtiyoj emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Amaliy tajriba va ilmiy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim shakllari talabalarning faolligi, kasbiy qiziqishi hamda metodik fikrlashini yetarli darajada faollashtira olmaydi. Natijada ta'lim jarayonida real kasbiy vaziyatlarga mos kompetensiyalarni shakllantirish samaradorligi pasayishi mumkin. Bunday sharoitda ta'limni interaktiv, motivatsion va faoliyatga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishga xizmat qiluvchi ilg'or texnologiyalar, jumladan, geymifikatsiyadan foydalanish ilmiy-metodik jihatdan asoslangan yechimlardan biri sifatida qaraladi.

Geymifikatsiya texnologiyasi o'quv jarayoniga o'yin mexanizmlarini integratsiya qilish orqali talabalarning ishtirokchanligi, ichki motivatsiyasi hamda reflektiv tafakkurini rivojlantirishga imkon yaratadi. Xususan, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda o'yin asosidagi metodik muhit kasbiy faoliyatga yaqin holatlarni modellashtirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va pedagogik qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kasbiy kompetentlik pedagogik faoliyatni yuqori sifatda amalga oshirishni ta'minlaydigan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar hamda shaxsiy-kasbiy fazilatlarining yaxlit (integrativ) majmui sifatida talqin etiladi. Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi kompetentligi faqat metodik bilimlar zaxirasi bilan cheklanmaydi; u pedagogik vaziyatlarda tezkor va dalillangan qaror qabul qilish, bolalar psixologik rivojlanishining yosh xususiyatlarini chuqur anglash, tarbiyaviy muhitni maqsadga yo'naltirib boshqarish, shuningdek, pedagogik jarayon natijadorligini muntazam tahlil qilish kabi kasbiy harakatlar tizimini ham qamrab oladi. Shuning uchun bo'lajak tarbiyachilarda kompetentlikni rivojlantirish ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etishni taqozo etadi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj bir qator obyektiv omillar bilan izohlanadi. Jumladan, maktabgacha ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonining ko'pkomponentli tuzilishi (tarbiyaviy ta'sir, psixologik qo'llab-quvvatlash, didaktik faoliyat, ijtimoiy moslashuv, sog'lomlashtirish yo'nalishlari) tarbiyachidan murakkab vazifalarni muvofiqlashtirishni talab etadi. Bunga qo'shimcha ravishda, tarbiyachi faoliyatida muloqot, kuzatuv, individual va differensial yondashuv, ota-onalar bilan hamkorlik kabi kasbiy funksiyalarning ko'lamini kengayib bormoqda. Shuningdek, ta'lim amaliyotida innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali tatbiq etish ehtiyojining ortishi hamda kreativ pedagogik fikrlash va yangicha yechimlarga bo'lgan ijtimoiy buyurtmaning kuchayishi bo'lajak mutaxassis kompetentligini maqsadli rivojlantirishni zaruriyatga aylantiradi. Mazkur omillar nuqtai nazaridan bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetentligi bir nechta ustuvor yo'nalishlarda takomillashib borishi lozim. Avvalo, metodik kompetensiya – mashg'ulot hamda tarbiyaviy faoliyatni loyihalash, ta'lim mazmuniga mos metod va vositalarni asosli tanlash hamda natijani tahlil qilish qobiliyatini ifodalaydi. Kommunikativ kompetensiya – bolalar, ota-onalar va pedagogik jamoa bilan samarali muloqot o'rnatish, hamkorlikni tashkil etish va pedagogik ta'sirchan nutqdan foydalanish bilan bog'liq. Psixologik kompetensiya – bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini moslashtirishni ta'minlaydi. Kreativ kompetensiya – ta'limiy vaziyatlarga innovatsion yondashuv, yangi g'oya va metodik yechimlarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish ko'nikmasida namoyon bo'ladi. Reflektiv kompetensiya esa tarbiyachining o'z kasbiy

faoliyatini tahlil qilish, kamchilik va yutuqlarni aniqlash, shaxsiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilash orqali o'z-o'zini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak tarbiyachilar kompetentligini rivojlantirishda ta'lim jarayonini faollashtiruvchi va motivatsion omillarni kuchaytiruvchi texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda geymifikatsiya texnologiyasi o'yinlarning psixologik-motivatsion mexanizmlarini o'quv faoliyatiga moslashtirish orqali kasbiy yo'naltirilgan kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali didaktik yechim sifatida e'tirof etiladi. Geymifikatsiyaning mohiyati ta'lim jarayonini "shunchaki qiziqarli" ko'rinishga keltirishdan iborat emas; u talabalarni kompetensiyaga yo'naltirilgan vazifalarni bajarishga ichki motivatsiya va shaxsiy mas'uliyat asosida jalb etishni ko'zda tutadi. Mazkur yondashuv orqali talabalarning ishtirokchanligi ortadi, natijaga yo'naltirilganlik kuchayadi, o'zini sinash va o'zini baholash mexanizmlari faollashadi hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Eng muhimi, kasbiy vaziyatlarni modellashtirish asosida amaliy fikrlash va pedagogik qaror qabul qilish tajribasi bo'yidi.

Ta'lim jarayonini geymifikatsiyalashda ball va reyting tizimi, darajalar, missiyalar, rag'batlantirish, rolli vazifalar, bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi topshiriqlar kabi o'yin elementlari didaktik maqsadga muvofiq tarzda integratsiya qilinadi. Bunday elementlar talabalarning ta'limiy faoliyatga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirib, ularni kasbiy kompetensiyalarni egallashga yo'naltiruvchi ichki rag'bat mexanizmini kuchaytiradi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini geymifikatsiya asosida rivojlantirishning ilmiy-metodik poydevori bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar majmuiga tayanadi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini amaliy ko'nikma va kompetensiyalar orqali ifodalashni talab etsa, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv bilimning aynan faoliyat jarayonida egallanishini va mustahkamlanishini ta'minlaydi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabaning individual imkoniyatlari, qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olish orqali ta'limni diferensiallashtirishni nazarda tutadi. Reflektiv yondashuv esa o'z-o'zini tahlil qilish va o'zini rivojlantirish strategiyasini shakllantirishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar negizida shakllantiriladigan metodik model quyidagi komponentlar bilan tavsiflanadi: maqsad komponenti – metodik, kommunikativ, kreativ va reflektiv kompetensiyalarni izchil rivojlantirishni ko'zda tutadi; mazmun komponenti – maktabgacha ta'lim metodikasi, bolalar psixologiyasi, pedagogik kommunikatsiya hamda innovatsion texnologiyalarni integratsiyalashgan holda qamrab oladi; jarayon komponenti – missiyalar, keyslar, rolli o'yinlar, situatsion vaziyatlar va mini-loyihalar orqali tashkil etiladi; natija komponenti esa kompetentlik ko'rsatkichlarining o'sishi, reflektiv tahlilning shakllanishi va amaliy tayyorgarlikning mustahkamlanishi bilan ifodalanadi.

Geymifikatsiya asosida ta'lim jarayonini amaliy yo'naltirish maqsadida bir qator metodik mexanizmlardan foydalanish mumkin. Xususan, "Kasbiy missiya" formatidagi topshiriqlar tarbiyachi faoliyatida uchraydigan muammoli vaziyatlarni (bolaning moslashuvi, xulq-atvordagi og'ishlar, guruh ichidagi munosabatlar) tahlil qilish va yechim ishlab chiqishga yo'naltiriladi. "Metodik konstruktor" topshiriqlari didaktik o'yin va mashg'ulot ssenariysini pedagogik maqsadga mos ravishda loyihalashni ta'minlaydi. "Pedagogik keys"lar ota-ona bilan muloqot, guruhni boshqarish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishga doir qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantiradi. "Refleksiya kartasi" orqali har bir vazifa yakunida tahlil, xulosa va takliflar shakllantirilib, reflektiv ko'nikmalar mustahkamlanadi. "Kreativ

laboratoriya" esa innovatsion o'yin topshiriqlari yoki metodik yechimlarni yaratish orqali kreativ kompetensiyani faollashtiradi. Mazkur mexanizmlar natijasida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mas'uliyati kuchayadi, metodik tafakkuri chuqurlashadi hamda pedagogik hamkorlik madaniyati shakllanadi.

Xulosa qilganda, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda geymifikatsiya texnologiyasi motivatsion asos, kasbiy modellashtirish va reflektiv faoliyatni uyg'unlashtiruvchi samarali metodik platforma vazifasini bajaradi. Natijada tarbiyachilarda metodik tayyorgarlik, kommunikativ madaniyat, kreativ yondashuv va kasbiy fikrlashning izchil rivojlanishi ta'minlanadi. Demak, geymifikatsiya elementlarini tarbiyachilarni tayyorlash jarayoniga ilmiy-metodik asosda integratsiya qilish ta'lim sifati hamda kadrlar kompetentligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
2. Bandura A. *Social Learning Theory*. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977.
3. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. *From Game Design Elements to Gamefulness: Defining "Gamification"* // *Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference*. – 2011. – pp. 9–15.
4. Kapp K.M. *The Gamification of Learning and Instruction: Game-Based Methods and Strategies for Training and Education*. – San Francisco: Pfeiffer, 2012.
5. Deci E.L., Ryan R.M. *Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior*. – New York: Plenum Press, 1985.
6. Schön D.A. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. – New York: Basic Books, 1983.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, may

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 10-son (may, 2026-yil). – 93 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-may

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.